

TURSUNBOYEVA MUXTABAR DEXQONOVNA.

CHDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar tilini rivojlantirishda maktabgacha talim tashkilotining o'rni ahamiyatli yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, bolalarning intelektual ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beruvchi kommunikativ treninglardan namunalar keltirilgan. Bugungi kun jamiyatimizda ayniqsa bolalarni o'qitish kundan kun rivojlanib bormoqda. Bolalarni o'qitish protsessida ta'lim metodlari mexanizmi muhim rol o'ynaydi. Samarali metod kompetentlarini dars mashg'ulotlari davomida qo'llash bu har bir professor-o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan intelektual yondashish va izlanish mahsuli sifatida baholanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning funksional serunumligi tilni o'qitish jarayonidagi integratsional bog'lanish protsessini mukammalashtiradi.

Kalit so'zlari: qobiliyat, o'qituvchini qobiliyatini rivojlantirish, —traning intelektual saloxiyat treninglar. zamonaviy pedagogik texnologiyalar, funksional protsess, intellektual aspekt, kasbiy samaradorlik, metod, usul, tamoyillar

Dolzarbli; Har bir bola bog'chaga kirgandan boshlab o'qituvchi bilan salomlashib, hol-ahvolini aytadi. Bu jarayon har kuni takrorlanadi va har kuni bolaning so'z boyligi kengayadi. Gaplar tuzishga, o'z fikrini ifodalashga o'rgatadi.

Keyingi vazifa esa, albatta, pedagoglar zimmasiga tushadi. Ya'ni, bolalarning o'z fikrini erkin ifodalashida, so'zlarni bir-biri bilan bog'lashda, sodda gaplar tuzishda, fikrlash va to'g'ri gapirish qobiliyatini rivojlantirishda imkon qadar ishtirok etadilar. Shunday qilib, bolalar har qanday asar mazmunini mustaqil ravishda ifodalashlari mumkin, hatto dialog asarlarda odamlarning so'zlarini

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bosqichma-bosqich ifodalashga harakat qilishadi.

Bolalar bog'chasida bolaning tilini rivojlantirishda ishlatiladigan birinchi yordam yoki vosita o'yin va o'yinchoqdir. Ular o'yinchoqlar yordamida turli xil hikoyalar tuzadilar. O'yinchoqlar bilan o'ynashda ular mustaqil ravishda turli rolli o'yinlarni o'ynaydilar, bir-biri bilan dialogga kirishadilar, so'z boyligini kengaytiradilar. Bu yoshdagi bolalarning xotirasi yuqori bo'lganligi sababli, ular aytgan har bir yangi so'z ularning so'z boyligini boyitadi.

Maqsad va vazifalari.

Albatta, ertak yoki turli asarlar rollarga bo'linib, teatr qurollari asosida sahnalashtiriladi, bu esa bolalarning tafakkurini, til qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Har bir tinglangan ertak, qolaversa, uni harakat bilan ko'rsatish orqali bajarilgan ish ham ularning xotirasida tez saqlanib qoladi. Bolalar tarbiyasida badiiy adabiyotning o'rni alohida. Yuqorida zikr etilgan ertaklar, hikoyalar, maqollar, topishmoqlar, kichik she'rlar bolaning so'z boyligini rivojlantiribgina qolmay, balki bola tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni adabiyotning bunday janrlari bilan singdirish esa tarbiyachining zimmasidadir. Yoshligidan o'ziga mos asarlarni tinglab ulg'aygan bola ulardagi ijobiy obrazlarga taqlid qiladi, qahramonlikka, mardlikka intiladi. Shunday qilib, bolada vatanparvarlik tuyg'ulari shakllana boshlaydi.

Bunday ishlar olib boriladi va buning natijasida o'qituvchi har bir bolaning idrok va nutq qobiliyati darajasini o'rganar ekan, to`g`ri talaffuz qilishga e'tibor beradi. Har bir tashkil etilgan o`quv faoliyatida tovush tomoniga mos ravishda turli mashqlar va turli zarur ishlar olib boriladi.

Qo'langan usullar. Tadqiqotning nazariy (taxlliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so'rovlar,suxbat, so'rovnama, kuzatish) prognostic (ekspert baxolash ,mustaqil baxolarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, grafik tasvirlash) kabi metodlardan foydalilanilgan.

Olingan natijalar. Nazariy va pedagogik vaziyatni o'zganishda talabalarning umumiyligi ta'lim tajribasini rivojlantirishni ta'minlash, ta'lim va bilim

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

kompetentligini shakllantirish bo'yicha dalillarga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan xamda xamda tarbiyachilik boyicha o'quv uslubiy majmuasi takomillashtirilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bolaning o'z tilida aniq so'zlashi, o'z fikrini yetkazishi uchun bog'cha alohida o'rinn tutadi. Bog'chada har bir bolaning tilini rivojlantirish, ya'ni zamonaviy bilimlar bilan singdirish orqali ularning ijodiy qobiliyatini uyg'otish, so'z boyligini kengaytirishga alohida e'tibor qaratish tarbiyachining bevosa vazifasidir. O'z kasbini sevgan, har bir bolaga o'z farzandidek munosabatda bo'lgan o'qituvchi bu vazifani katta mas'uliyat bilan ado etishi shubhasiz.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. «Bolalar bog`chasing katta tarbiyachisi» - Toshkent 1991 y.
2. «Inspektirovanie detskogo sada» M-1995 g.
3. V.G.Nichaeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatda tarbiyalash - Toshkent. O`qituvchi -1995 y.
4. L.P.Tarasova «Bolalar bog`chasi» mudiralar kitobi- Toshkent 1988 y.